

Davletyorova Dilafruz Davronbek qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti talabasi
O'zbekiston

O'ZBEKISTON ERKIN IQTISODIY ZONALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarning (EIZ) shakllanishi, ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, EIZlarning zamonaviy infratuzilma, eksport-import jarayonlari, aholi bandligi hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Erkin iqtisodiy zonalar, port shaharlar, magistral yo'llar, sanoat, eksport, erkin industrial-iqtisodiy zona, kapital.

Davletyorova Dilafruz Davronbek qizi
student
Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni
Uzbekistan

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN

Annotation. This article analyzes the formation of free economic zones (FEZs) in the Republic of Uzbekistan, their economic and social significance and development prospects. It also shows the role of FEZs in modern infrastructure, export-import processes, employment, and the introduction of innovative technologies.

Key words: Free economic zones, port cities, highways, industry, export, free industrial economic zone, capital.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Ulardan biri - erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi bo'lib, u xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish va mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikni yumshatishga qaratilgan.

Erkin iqtisodiy zona - mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida hududiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir [3]. Erkin iqtisodiy zonalar ko'p hollarda davlatlararo tutash hududlarda (bir necha davlatlarning chegaralari tutashgan hudud), xalqaro aeroportlar, port shaharlarda yoki transport yo'llari tutashgan hududlarda tashkil etiladi.

EIZlarning shakllanishida quyidagi omillar alohida o'rin tutadi.

- investor uchun hududning iqtisodiygeografik holati juda qulay bo'lishi shart;
- kamida mintaqaviy ahamiyat kasb etuvchi magistral yo'llarning kesishgan joylari bo'lishi lozim;
- dengiz va daryo portlariga yaqin bo'lishi kerak;
- aeroportlar xalqaro maqomga ega bo'lishlari lozim.

Bugungi kunda mamlakatda bir nechta erkin iqtisodiy zonalar faoliyat yuritmoqda va ularning soni ortib bormoqda. Hozirda 23 ta EIZ va 348 ta kichik sanoat zonasi faol bo'lib, ularda 2,6 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilib, 36 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan [4]. Bu zonalar xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, infratuzilma muammolari, loyihalarni muvofiqlashtirishdagi sustkashliklar investorlar uchun jozibadorlikni pasaytirmoqda. Kelajakda qonunchilik bazasini takomillashtirish, yer ajratish jarayonlarini soddalashtirish va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash orqali EIZlar samaradorligini oshirish rejalashtirilmoqda. 2025-yilda infratuzilma rivojiga 1,6 trillion so'm ajratilib, 17 ta EIZ va 145 ta kichik sanoat zonasida elektr, gaz va suv tarmoqlari kengaytiriladi. Farmatsevtika, avtomobilsozlik va to'qimachilik kabi sohalarga ixtisoslashgan zonalar, masalan, "Navoiy", "Angren" va "Jizzax" eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga yordam beradi. Xitoy va

boshqa rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanib, EIZlar raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratmoqda. Investorlar uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy yengilliklar kengaytirilib, raqobatbardosh bozor muhiti shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, mahalliy kadrlar malakasini oshirish va ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish orqali EIZlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar tarmog'i shakllanishi 2008-yildan boshlab bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy siyosatida tub burilish yasab, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ilg'or texnologiyalarni kiritish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan edi. Jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi PF-4059-sonli Farmoniga asosan Navoiy viloyati Karmana tumani hududida O'zbekistondagi birinchi erkin zona – "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi (EIZ) tashkil etildi. Navoiy EIZ – O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda, zamonaviy ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yishda, eksport hajmini oshirishda va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etuvchi hududlardan biridir. Hozirgi kunda "Navoiy Erkin iqtisodiy zonasi"da Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy xalq respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston, Singapur va Rossiya davlatlari bilan istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Telekom Innovations" mas'uliyati cheklangan jamiyat qo'shma korxonasi (Singapur, Xitoy), "TV tyunerlar, ADSL modemlar va Home Gate way" qurilmalarini ishlab chiqaruvchi tashkilot,

“UzEraeCabel” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi (Koreya Respublikasi), “Avtomobillar uchun kabel va akkumulyator jgutlarini ishlab chiqaruvchi”, “UzEraeAlternator” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi (Koreya Respublikasi), “Avtomobillar uchun generator va compressor” ishlab chiqaruvchi tashkilotlar faoliyat yuritmoqa [2].

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasidagi yirik erkin iqtisodiy zonalari

T/r	Erkin iqtisodiy zona nomi	Joylashgan hududi	Maydoni (gektar)	EIZ tashkil etilgan sana	Ixtisoslashuvi
1.	“Navoiy” EIZ	Navoiy viloyati Karmana tumani	564	2008-yil 2-dekabr	Sanoat, elektronika
2.	“Angren” EIZ	Toshkent viloyati	4125	2012-yil 13-aprel	Kimyo, qurilish, energetika
3.	“Jizzax” EIZ	Jizzax viloyati	363	2013-yil 18-mart	Yengil sanoat, mashinasozlik
4.	“Urgut” EIZ	Samarqand viloyati Urgut tumani	816	2017-yil 12-yanvar	Elektronika, qurilish materiallari
5.	“Hozarasp” EIZ	Xorazm viloyati Hozarasp tumani	414	2012-yil 12-yanvar	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash
6.	“Qoraqalpoq-agro” EIZ	Qoraqalpog‘iston respublikasi Nukus shahri	875,4	2020-yil 11-noyabr	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash
7.	“G‘ijduvon” EIZ	Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani	200	2017-yil 12-yanvar	Qurilish materiallari, to‘qimachilik, kimyo

Yirik erkin iqtisodiy zonalaridan yana biri bu Angren erkin iqtisodiy zonasi hisoblanadi. Angren erkin iqtisodiy zonasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-apreldagi farmoni asosida tashkil etilgan. Ushbu erkin iqtisodiy zona Toshkent viloyatining Angren shahri va unga tutash hududlarda joylashgan bo‘lib,

mamlakatda sanoatni rivojlantirish, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etilgan muhim iqtisodiy hududlardan biridir. Angren EIZda zamonaviy infratuzilma barpo etilgan, bunda avtomobil yo'llari, temir yo'l tarmoqlari, energiya ta'minoti, gaz, suv va kanalizatsiya tizimlari mavjud. Bu yerda asosan kimyo, neft-kimyo, qurilish materiallari ishlab chiqarish, elektrotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati va boshqa ko'plab yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi korxonalar joylashgan.

Jizzax erkin iqtisodiy zonasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-martdagi farmoni asosida tashkil etilgan bo'lib, mamlakatning sanoat va investitsion salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim hududlardan biridir. Ushbu zona Jizzax viloyatida joylashgan bo'lib, yirik transport yo'llariga yaqinligi bilan ajralib turadi. Jizzax EIZ zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlangan, investorlar uchun qulay soliq va bojxona imtiyozlari mavjud. Zonada asosan elektrotexnika, qurilish materiallari, avtomobil ehtiyot qismlari, kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan loyihalar amalga oshiriladi. Bu yerda Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya va boshqa davlatlardan sarmoyadorlar jalb etilgan bo'lib, ularning ishtirokida bir qator qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Jizzax EIZ faoliyati hududiy iqtisodiy faollikni oshirib, yangi ish o'rinlari yaratilishiga, mahalliy byudjetga tushumlar ko'payishiga va eksport salohiyatining ortishiga xizmat qilmoqda. Ayni paytda zonaning strategik rivojlanishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Shu tariqa, Jizzax erkin iqtisodiy zonasi O'zbekistonning sanoatlashuvi va iqtisodiy hududiy muvozanatini ta'minlashda muhim o'rin egallamoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi muhim strategik qadam bo'ldi. Ularning maqsadi xorijiy investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy texnologiyalarni kiritish va

hududiy iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishdan iboratdir. Erkin iqtisodiy zonalar aniq ma'muriy chegaralarga ega bo'lgan maxsus hududlar bo'lib, ular uchun qulay soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amanov A.K. Nazarov D.M. Free economic zones in Zarafshan economic district // Экономика и социум. №1(128)-2 2025.
2. Muxamedova N.J., Kuvvatova D.B., Nurova M.A., Ismoilov U.B. Specific features of Navoi region free economic zone // Экономика и социум. №3 (94)-2 2022.
3. Nigmanov E. Iqtisodiy geografiya o'quv qo'llanma. – T.: 2016.
- 4.<https://oz.sputniknews.uz/20201215/Ozbekiston-erkin-iqtisodiy-zonalar-15604672.html>
5. <https://idz.nsumt.uz/eiiz/>
- 6.<https://lex.uz/docs/-1432357?ONDATE=03.04.2017>